



## PSIXOLOGIK MASLAHATNING HARBIY XIZMAT FAOLIYATIDAGI O'RNI

**Xamrakulov Sobit Salijanovich**

*O'zbekiston Respublikasi*

*Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi  
muxandislik sikl boshlig'i, podpolkovnik.*

**Komilov Xayotillo Omatilloevich**

*O'zbekiston Respublikasi*

*Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi  
moddiy ta'minot sikli katta yo'riqchisi, III-darajali serjant*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada psixologik axloqiy-ruhiy ta'minotni shakillashtirishda va harbiy xizmatchilarining xizmat faoliyatida o'z ruhiy irodaviy holatini boshqarish bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** jangovar stress, emotsional holat, jangovar tajriba va jangovar ruh, ekstremal vaziyat, repressiya, rad etish, xavfsizlik tamoyili.

Barchamizga ma'lumki, harbiy xizmatchilarining kasbiy faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega: ya'ni xizmat faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi; lavozimlar bo'yicha vakolatga egaligi; keng taktik maydonning mavjudligi; kommunikativlik; vaqt tanqisligi va xizmat jarayonida vaziyat nuqtai nazaridan kutilmaganda tushadigan vazifalarning mavjudligi, bu xususiyatlar harbiy xizmatchining ruhiy jihatdan tayyorgarligiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda stress holatlari va aggressiv xulq-atvorni ham keltirib chiqarishi mumkin. Xizmat faoliyatida harbiy xizmatchilarga turli (aksariyat hollarda, stress xususiyatiga ega bo'lgan muammolar) omillar ta'sir etib turadi. Bu esa, o'z navbatida, charchash, holdan toyish, turli salbiy hissiy holatlarning yuzaga kelishi, xizmat faoliyatidagi kamchiliklarga va ruhiyatida buzilishlar paydo bo'lib turishiga sabab bo'ladi. Harbiy xizmatchilarining xizmat faoliyatida o'z ruhiy-irodaviy holatini boshqarish zarur bo'ladigan vaziyatlar tez-tez yuzaga keladi. Ruhiy va jismoni yzo'riqishlar meyordan (haddan tashqari katta bo'lganda) oshganda, harbiy xizmatchi xizmat faoliyatini noto'g'ri tashkil etilishiga, xihmat faoliyatida jiddiy xato va kamchiliklar, ruhiyatida esa buzilishlar, o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, zo'riqish va zo'riqishning yuqori darajasiga olib kelishi kuzatilishi mumkin. Stress – og'ir, mushkul yoki murakkab sharoitlarda yuzaga keluvchi psixikaning zo'riqishidir. Inson shug'ullanadigan faoliyatning turi, uning mazmuni, mavjud shart-sharoitlar, faoliyatning tashkiliy qismi va shoshilinch (ekstremal) omillar, shuning-dek, insonga imkoniyatidan ortiqcha talab qo'yilishi stressning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday jarayonlar vujudga kelgandi harbiy xizmatchilarga to'g'ridan-to'g'ri psixologik maslahatlar berish orqali muammolarni echishga imkoniyatlar yaratish yoki yuzaga kelgan muammoni o'zi mustaqil ravishda

echimini topishiga yo'naltirilmog'i maqsadga muvofiqdir. Psixologik maslahat harbiy xizmatchiga o'z muammolarini anglashga ko'mak bera-di va u bilan birgalikda murakkab vaziyatdan chiqib ketish yo'lini axtaradi. Psixo-logik maslahat yakka tartibda yoki guruhiy (oilaviy yoki jamoaviy) shaklda amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

**Psixologik maslahat** – bu amaliy psixologyaning shunday sohasiki, unda mala-kali mutaxassislar tomonidan turli psixologik vositalar yordamida insonni psixo-logik salomatligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarini hal etishga (qiyinchiliklarni echishga) qaratilgan bo'ladi. Ushbu muammolar insonning oilaviy, shaxslararo munosabatlari, shaxs sifatida kamol topishi va shakllanishi xamda kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Gumanistik yo'nalishning psixoterapiya sohasida psixologik maslahat atamasi ilk bor o'tgan asrning 40-50 yillarida paydo bo'lgan bo'lib, unga taniqli olim terapevt Karl Rodjers tomonidan asos solingan. Psixologik ishlarning alohida tarmog'i hisoblangan bu psixologik maslahat ruhan sog'lom, biroq kundalik hayotda ma'lum bir sabablarga ko'ra uehrab turadigan xayotiy to'siqlarga, qiyinchiliklarga duch kelgan insonlarga ijtimoiy yordam berish zaruratidan kelib chiqib paydo bo'lgan.

***Harbiy xizmatchidagi turli muammolarni (shikoyatlarni) aniqlashning umumiyligi rejasi (strategiyasi) o'z ichiga quyidagilarni oladi:***

maslahatchi psixolog tomonidan shikoyat (ariza)lar mazmunini nutqning turli usullari orqali yoritishi (jumlanı qaytarish, o'zgartirib ifodalash, rezyume va h.k.);

empatiyani namoyish etish maqsadidan xoli ravishda harbiy xizmatchidagi xissiyotlarni aks ettirish, shu shikoyat (ariza) asosida yotgan xissiy kechinmalar orqali shikoyatning asl sababani aniqlash, ya'ni maslahatchi: "Siz mana shuni gapirganingizda nimani his qilishingizni men sezaman...", "Sizni tushunaman...", "Ha, albatta...", "Davom etavering...", "Uyalmang, menda ham shu holat bo'lgan...", "Aniqroq ifoda etsangiz, iltimos..." kabi iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq. Aksincha, "Tezroq bo'ling...", "Nega bunday bo'ldi...", "Kim Sizga bunday dedi..." va shu ma'nodagi iboralarni ishlatish tavsiya etilmaydi;

harbiy xizmatchining yo'nalgaligini, uning dunyoqarashini o'rganishda, mijoz o'z muammolarini qanday izohlashiga, muammo sabablarini tushuntirib (kelib chiqish sabablarga munosabati), voqeylekda kim va nimani aybdor qilayotganligi va boshqalarga konsultant bor diqqatini qaratishi lozim.

**Muammolarni tahlil qilish bosqichi o'z ichiga quyidagilarni oladi:**

maslahatchi va harbiy xizmatchi o'rtasida samimiy ishonch aloqalarini o'rnatish (agar harbiy xizmatchiga bosim o'tkazilsa undan hech qanday ma'lumot olib bo'lmaydi, u o'z-o'zini (yopish) himoyalash holatiga o'tadi);

harbiy xizmatchida muammoni kelib chiqish va paydo bo'lish sharoitlari, hissiy (emotsional), o'zaro munosabatlarning kognitiv asoslari, o'zini tutish reaksiyasini tahlil qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, psixolog har bir harbiy xizmatchi bilan psixologik maslahatlar olib borish jarayonida alohi-da dasturlarni ishlab chiqishi va ushbu dasturlardan kelib chiqqan holda maslahatlar berishi lozim. Bu dasturda maslahatning har bir bosqichining maqsad va vazifalari, strategiyasi va uslubi hamda zarur materiallar bilan ta'minlashi sharoitlarini belgilab olishi kerak. Psixolog maslahatni olib borish vaqtini mijoz bilan kelishgan holda xizmat faoliyati sharoitlariga qarab bir necha marotaba tashkil etishni rejalashtirishi mumkin. Psixologik maslahatlar o‘z yakuniga etgach, harbiy xizmatchini ma’lum bir vaqtgacha ko‘zdan qochirmsaligi (kuzatuvga olishi), va uni qo’llab-quvvatlab turishi zarur bo’ladi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sirliev B. N., Ismailova N., Xakimova I.M. Stress va agressiya: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.
2. Harbiy xizmatchilar bilan psixologik maslahat o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari va usullari: O‘quv qo‘llanma. – 2018.